

PROBATSIIYA XIZMATI TOMONIDAN IJRO ETILADIGAN JINOIY JAZOLARNING SAMARADORLIGI VA PROBATSIIYA XIZMATIDAGI BOSHLIQLAR HAMDA ULARHA NAZARIY YECHIMLAR

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI
SAMANDAR O'RINBOYEV
HUQUQBUZARLIKAR PROFILAKTIKASI
KAFEDRASI PROBATSIIYA FAOLIYATI KURSANTI*



Kalit so'zlar: Probatsiya xizmati, jinoiy jazolar , probatsiya xizmatidagi bo'shliqlar, ijrodagi samaradorlik, probatsiya tarixi, statistikasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada probatsiya tizimi va uning faoliyati, probatsiya xizmatining tshkiliy-shtat masalalari, sud tomonidan qo'llanilgan jinoiy jazolar ijrosi samaradorligi ayrim bo'shliqlarga nazariy jixatdan yechimlar ham keltirilgan.



“Probatsiya ” so'zi lotinchadan olinganda “probatio” ya'ni “sinov muddati” ma'nosini anglatadi , ingliz tilidan “probare” sinov ma'nosini anglatadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilgan sud-huquq tizimini isloh qilish borasida olib borilgan islohotlar natijasida Probatsiya xizmati respublikamizda ham tashkil qilindi.


Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan olib borilgan “Inson qadrini ulug'lash ” tamoyiliga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi “inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning to'laqonli a'zosi ekanligimizning yorqin dalili sifatida bu xizmat tashkil etildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Probatsiya xizmati Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibidagi tashkiliy tuzilma bo'lib, o'zining tashkiliy-shtat va boshqa ichki masalalariga ega xizmat hisoblanadi.

Probatsiya xizmati sudning qonuniy kuchga ega bo'lgan hukmi(ajrimi)ga asosan ozodlikdan maxrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini ta'minlaydi va “axloq tuzatish ishlari ” , “muayyan huquqdan maxrum qilish” , “majburiy jamoat ishlari” , “ozodlikni cheklash ” kabi jazolarning ijrosini tashkil qiladi. Probatsiya so'zi ilk bor AQShlik olim John Augustus tomonidan qo'llanilgan

bo'lib, AQShning Massachussets shtatida 1878-yil ilk bor qollanilgan, ya'ni ilk marotaba shaxsni kafillikga olgan holda uni qamoq jazosidan saqlab qolgan. 1905-yilda ilk xizmat ko'rinishida tashkil etilgan. Keyinchalik Angliya va Germaniyada ham rivojlanib bordi.

Probatsiya xizmati ilk ko'rinishi jazolarni ijro qilish inspeksiyasi sifatida tashkil qilingan. Keyingi islohotlar natijasida ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7- noyabrdagi "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4006 -sonli qaroriga asosan 2019-yil 1-yanvardan boshlab IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasining tarkibida probatsiya xizmati va uning hududiy tizimlari tashkil etildi. Qisqa muddat davomida probatsiya xizmatini takomillashtirish ushbu tizimning huquqiy maqomini kuchaytirish, nazoratdagi shaxslar huquq erkinliklarini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-fevral kunidagi "Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 84-sonli qarori qabul qilinib, ushbu qaror asosida probatsiya nazorati ostidagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha vazirliklar va idoralarning hamkorlikdagi faoliyat mexanizmi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasida probatsiya xizmati IIV Jamoat xavfsizligi departamenti tarkibiga kiruvchi boshqarma, hududlarda esa 206 ta tuman, shahar probatsiya bo'lim va guruhlardan iborat tuzilmani tashkil etib quyidagi ko'rinishga ega:



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yi 15-aprel kunidagi PQ-207-sonli qarori bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi "Jinoyat ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-sonli qarorining ayrim bandlariga qo'shimcha-o'zgarishlar kiritilib, qarorning 6-bandida ko'rsatilgan IIV ning Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan kelib tushadigan ushlanmalarning 50% hisobidan shakllantiriladigan Probatsiya xizmatini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish 100%lik qilib almashtirildi. Hozirgi kunda bu kabi islohotlar statistikaning turli xilda o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Probatsiyaga oid axborot tizimini rivojlantirish asnosida uni sud ishlari hamda fuqarolik va migratsiya va personallashtirish departamenti bilan uzviy hamkorligi yo'lga qo'yilib ularning axborot tizimlari integratsiya qilindi. Buning natijasida sud chiqargan hukm (ajrim)lar qaysi hududiy birlikka tegishli bo'lsa o'sha hudud probatsiya ba'zasida ko'rinib turishi bu ham yo'lga qo'yilsa ham vaqt ham bir muncha

qulayliklarni yaratadi. Kelib chiqadigan har qanday xatoliklar bo'lsa hukm(ajrim) chiqargan sudning o'ziga qay holatda bo'lsa shu holatda jo'natib yuborilishi uchun ham qulay hisoblanadi.

Probatsiya xizmatidagi asosiy kamchiliklar sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- 1) Kadrlar malakasi va yetishmovchiligi;
- 2) Resurslar va moddiy texnik ba'za zaifligi;
- 3) Ijtimoiy moslashuv dasturlarining (sustligi) yo'lga qo'yilmaganligi;
- 4) Idoralar aro hamkorlikning sustligi (hodimlarning o'ziga bog'liq bolgan holda);
- 5) Jamoatchilik ishtirokchiligining pastligi ;
- 6) Axborot tizimlarining integratsiyasi pastligi.

1. Kadrlar malakasi va yetishmovchiligi ya'ni:

- Hududiy probatsiya bo'linma (guruh)larida malakali hodimlar yetishmasligi ya'ni 70-75% kadrlar maxsus bilimlar ega emasligi;

-Psixolog, ijtimoiy moslashuv va yuristlar soni kamligi bu holat individual jarayonini yomonlashtiradi;

- ushbu sohalarda malaka oshiruvchi hodimlarning yetishmasligi va bu soha bo'yicha hodimlar uzoq vaqt ishlamasligi, kadrlar almashinuvining yuqoriligi;

2. Resurslar va moddiy texnik ba'zaning zaifligi:

- Ayrim tuman (shahar) probatsiya bo'limlarida bino sharoiti, transport va hatto kompyuter tizimining yetishmasligi.

3 Ijtimoiy moslashuv dasturlarining sustligi (salbiy munosabat):

-Probatsiya nazorati ostidagi shaxslar jamiyat a'zolari tomonidan "jinoyatchi" sifatida qabul qilinadi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuviga to'sqinlik qiladi.

4. Ichki ishlar vazirligi, sog'liqni saqlash, bandlik vazirligi va ta'lim idoralari o'rtasida axborot almashinuvining yetarli emasligi.

5. Ko'plab holatlarda fuqarolik jamiyati institutlari, mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari diniy-ma'rifiy markazlar probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning rehabilitatsiya jarayonlariga jalb etilmasligi.

6. Probatsiya faoliyatida axborot tizimlarining past integratsiyasi tufayli ma'lumotlar takrorlanishi, nazoratdagi uzilishlar va tashkiliy qarorlar qabul qilishdagi sustlik kabi muammolarning yuzaga kelishi.

-Nazariy yechimlar:

1) yo'nalishdagi yechim

-sotsiologiya va psixologiya asosida malaka oshirish tizimini kuchaytirish ;

-xorijiy tajribalar (masalan AQSh, Angliya, Polsha va Germaniya) ni u sohadagi yo'nalishlarini o'rganish ;

-sotsiolog yoki psixolog sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoki shu yo'nalish bo'yicha o'qiyotgan safdor , serjantlar lavozimini joriy qilib , “ yordamchi inspektor psixolog ” o'rinlarini joriy ettirib, “texnik hodimlar” ni malakasini oshirish yoki ularning o'rniga ma'suliyatga ega bo'lgan formali hodimlarni joylashtirish hamda inspektorlarning almashinuvini birmuncha kamaytirish maqsadida probatsiya inspektorlarining lavozimini “kapitan” maxsus unvonigacha katta inspektorlar o'rnini “mayor” maxsus unvonigacha , bo'lim yoki bo'linma probatsiya boshlig'i o'rnini esa “podpolkovnik” maxsus unvonigacha yetkazish kerak.

2) yo'nalishdagi yechim

-ayrim tuman (shahar)lardagi probatsiya bo'limi binosining sharoitlari talab darajada emasligi, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun esa xususiy sherikchilik asosida amalga oshirgan holda tenderlarga qo'yish va sharoitlarni yaxshilash.

-hodimlarning probatsiya bo'limiga kelib ketishi ularning qatnovini yaxshilash maqsadida davlat mablag'laridan 30% manzil koloniyalarining qisqarishi o'sha manzil koloniyalariga ajratilayotga har yilgi mablag'lardan 70% qismini hodimlarning transport bilan ta'minlash yo'nalishiga ajratish.

-ish unumdorligini oshirish uchun axborot texnologiyalarini keng joriy qilgan holda inson omilini kamaytirish va ushbu jarayonni amalga oshirish uchun esa axloq tuzatish ishlari jazosidan davlat daromadi hisobiga tushayotgan mablag'lardan yo'naltirgan holda bosqichma-bosqich ushbu jarayonni amalga oshirish.

3) yo'nalishdagi yechim

-Jamiyatda stigma va stereotiplarni kamaytirish uchun ijtimoiy ongini o'zgartirish kampaniyalari (media, targ'ibot, ijtimoiy roliklar)ni kuchaytirish.

-Probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashda inklyuziv ijtimoiy moslashuv modelini joriy etish (psixologik yordam + kasbiy tayyorgarlik + mentorlik).

-“Ikkinchi imkoniyat” (second chance) konsepsiyasini huquqiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlash.

-Idoralararo hamkorlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish.

-Har bir shaxs bo'yicha individual elektron ish yuritish (case management) tizimini joriy etish. -Ish beruvchilar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar) yaratish.

4) yo'nalishdagi yechim:

-Ichki ishlar, sog'liqni saqlash, bandlik va ta'lim tizimlari o'rtasida yagona integratsiyalashgan platforma yaratish.

-Yagona reyestr” asosida probatsiya subyektlari haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida almashish tizimini yo'lga qo'yish.

5) yo'nalishdagi yechim:

-Mahallalar, NNTlar va diniy-ma'rifiy markazlar bilan davlat-xususiy hamkorlik (PPP) modelini rivojlantirish.

-Reabilitatsiya jarayonida fuqarolik jamiyati subyektlari uchun grant va subsidiyalar tizimini joriy qilish.

-Probatsiya tizimida ko'ngillilar (volunteer) institutini shakllantirish.

-Ijtimoiy sheriklik asosida mentorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.

6) yo'nalishdagi yechim:

-Probatsiya tizimi uchun yagona raqamli ekotizim (platforma) yaratish.

-Turli axborot bazalarini integratsiya qiluvchi API va avtomatlashtirilgan almashinuv mexanizmlarini joriy etish.

-Ma'lumotlar takrorlanishini oldini olish uchun markazlashgan ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish.

-Sun'iy intellekt va analitik tizimlar yordamida qaror qabul qilishni optimallashtirish.

-Kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi standartlarini kuchaytirish.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan muammolar probatsiya tizimining samarali ishlashiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, jamiyatdagi salbiy munosabatlar, idoralar o'rtasidagi axborot almashinuvining sustligi, fuqarolik jamiyati institutlarining yetarli darajada jalb etilmasligi hamda axborot tizimlarining integratsiya darajasi pastligi probatsiya nazoratidagi shaxslarning to'liq reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv jarayonini sekinlashtiradi.

Shu sababli, ushbu muammolarni hal etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ya'ni, jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish, davlat organlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb qilish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, taklif etilgan nazariy yechimlar amaliyotga tatbiq etilsa, probatsiya tizimining samaradorligi oshadi, nazorat ostidagi shaxslarning jamiyatga qayta integratsiyasi tezlashadi va takroriy jinoyatchilik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni – O'RQ-938-son, 07.08.2024 yilda imzolangan va shu sanadan kuchga kirgan (Qonunchilik palatasi tomonidan 23.05.2023 yilda qabul qilingan, Senat tomonidan 27.10.2023 yilda ma'qullangan).

2. United Nations Office on Drugs and Crime. *Handbook of Basic Principles and Promising Practices on Alternatives to Imprisonment*. – Vienna: UNODC, 2007.
3. Council of Europe. *Recommendation CM/Rec(2010)1 on the Council of Europe Probation Rules*. – Strasbourg, 2010.
4. United Nations. *United Nations Standard Minimum Rules for Non-custodial Measures (Tokyo Rules)*. – 1990.
5. Fergus McNeill. *Probation: Working with Offenders*. – London: Palgrave Macmillan, 2010.
6. Rob Canton. *Probation and the Community*. – Routledge, 2011.
7. Shadd Maruna. *Making Good: How Ex-Convicts Reform and Rebuild Their Lives*. – Washington DC: American Psychological Association, 2001.
8. D. A. Andrews & James Bonta. *The Psychology of Criminal Conduct*. – New York: Routledge, 2010.
9. Taxirov Sh. “Probatsiya xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslari”. – Toshkent, 2020.
10. Abdullayev A. “Probatsiya tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari”. – Toshkent, 2021.
11. Karimov B. “Jinoiy jazolar ijrosida muqobil choralar samaradorligi”. – Toshkent, 2019.
12. “The Law aims to improve efficiency in working with individuals under probation supervision”, *UzDaily*. – 24.10.2024.
13. Umaraliyeva, D.N. *Probatsiya: o‘quv qo‘llanma*. – Toshkent-2025 yil:
14. Umaraliyeva, D.N. & Rahimov, D.F. “Majburiy jamoat ishlari jazosining huquqiy mohiyati va uni ijro etish jarayoni”. – *Models and Methods in Modern Science*, 2025.
15. Tangriberdiyev, K.U. & Umaraliyeva, D.N. “Probatsiya xizmati xodimining murojaatlar bilan ishlash faoliyati”. – *Dunyo ta’limi sifatini oshirishning ilg‘or usullari*, 2025.